

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №5

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

# 2026 MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afrovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI .....	10
<b>Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna</b>	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА .....	19
<b>Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишерович</b>	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНАЕ .....	28
<b>Габбарова Ильмира Володиевна</b>	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLOATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH .....	34
<b>Amirov Shavkat Rahmatullayevich</b>	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ .....	41
<b>Усманова Азиза Баходировна</b>	
PEREGONDAGI HARAKATNI BOSHQARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIQISH .....	46
<b>Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li</b>	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....	55
<b>Alimova Dilafrō'z Tohir qizii</b>	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA) .....	61
<b>Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi</b>	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR .....	67
<b>Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ..	75
<b>Rajapov Xayrulla Bekdurdıyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi</b>	
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH .....	82
<b>Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li</b>	
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI .....	90
<b>Muxtorova Shaxlo Farxodovna</b>	
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH .....	94
<b>Qo'ziboyev Behzod Hamidovich</b>	
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY .....	99
<b>Sultanova Kamila Mukhtorali kizi</b>	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH .....	104
<b>Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li</b>	
FARG'ONA VILOYATI MAHALLALARIDA TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL OMILLARINI BAHOLASH .....	110
<b>Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich</b>	



MHXS STANDARTLARIGA O'TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR ....	116
<b>Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna</b>	
TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO'P O'LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI .....	120
<b>Turdikulova Moxira Maxmasharifovna</b>	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIVAVIY-IQTISODIY IMPERATIVLARI .....	125
<b>Kaxorova Zamira Safaraliyevna</b>	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA RO'Y BERISHI MUMKIN BO'LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI .....	131
<b>Dehqonov Oyatillo Mansurbek o'g'li, Abduraxmanov Abdurashid Ataxanovich</b>	
VTULKA DETALINI ISHLAB CHIQRISHDA SHTAMPLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQISH... .....	136
<b>Abdullayev Fatxulla, Xasanov Kamoliddin, Yolg'ashova Madina, Jo'rayev Muhiddin</b>	
JAHON MOLIVAVIY TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	140
<b>Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.</b>	
KORXONALARDA "TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH" KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI .....	144
<b>Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich</b>	
HUDUDIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MAHSULOT EKSPORTINI DIVERSIFIKATSIYALASH YO'LLARI.....	149
<b>Mamadjanova Tuyg'unoy Axmadjanovna</b>	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA YUQORI QO'SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR ULUSHINI KENGAYTIRISH .....	154
<b>Yusupova Feruza Yo'ldoshevna</b>	
AHOLINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MIKROLOYIHALARNING O'RNI .....	159
<b>Irgashev Anvar Farxodovich</b>	
XALQARO KOMPANIYALARDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	166
<b>Raxmankulov Sherzod Shokirovich</b>	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ДЕГРАДАЦИИ КОМПОНЕНТОВ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ МОДУЛЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ КЛИМАТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ: ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР .....	171
<b>Дыскин Валерий Григорьевич, Курбанов Юнус Муртаза угли, Жубаназаров Ринат Шапагат Улы</b>	
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI .....	177
<b>O'tbosarov Abrorbek Adxamjon o'g'li</b>	
DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI ICHKI AUDITORLARINING PROFESSIONAL AXLOQ QOIDALARINI ISHLAB CHIQRISH.....	182
<b>Xamidova Zarifa Urol qizi</b>	
AUDIT JARAYONIDA DALIL OLISH VA UNING MUAMMOLARI.....	189
<b>Ro'zmetov Mansur</b>	



# AUDIT JARAYONIDA DALIL OLIISH VA UNING MUAMMOLARI

**Ro'zmetov Mansur**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada audit jarayonida dalil olishning nazariy asoslari, dalil turlari va ularni to'plash usullari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, audit dalillarini olish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar tahlil qilingan va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Maqolada xalqaro auditorlik standartlari (ISA) talablari va O'zbekiston qonunchiligidagi tegishli normalar ham o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** audit, audit dalillari, dalil olish, auditorlik protseduralar, xalqaro auditorlik standartlari, moliyaviy hisobot, auditorlik xatarlari, dalillarning yetariligi, dalillarning ishonchligi.

**АННОТАЦИЯ.** В данной статье рассматриваются теоретические основы получения аудиторских доказательств, их виды и методы сбора. Также анализируются основные проблемы, возникающие в процессе получения аудиторских доказательств, и разрабатываются предложения по их устранению. В статье изучены требования международных стандартов аудита (ISA) и соответствующие нормы законодательства Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** аудит, аудиторские доказательства, получение доказательств, аудиторские процедуры, международные стандарты аудита, финансовая отчетность, аудиторские риски, достаточность доказательств, надежность доказательств.

**Annotation.** This article examines the theoretical foundations of obtaining audit evidence, its types, and collection methods. It also analyzes the main issues arising in the process of obtaining audit evidence and develops proposals for addressing them. The study also reviews the requirements of International Standards on Auditing (ISA) and relevant regulations of the legislation of the Republic of Uzbekistan.

**Keywords:** audit, audit evidence, obtaining evidence, auditing procedures, International Standards on Auditing, financial reporting, audit risks, sufficiency of evidence, reliability of evidence.

## KIRISH

Audit — bu moliyaviy hisobotlarning ishonchligi va to'g'riligini tekshirishga qaratilgan mustaqil professional faoliyat bo'lib, uning sifati ko'p jihatdan to'plangan dalillarning sifatiga bog'liqdir. Audit dalillari — bu auditor o'z xulosalarini asoslash uchun ishlatadigan ma'lumotlar va hujjatlar majmuasi hisoblanadi. Ushbu dalillarni to'g'ri va to'liq to'plash auditorlik xulosasining asosi bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda biznes muhitining murakkablashib borishi, moliyaviy jinoyatlarning turli-tuman ko'rinishlarda namoyon bo'lishi va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi audit jarayonida dalil olishni yanada muhim va ayni paytda murakkab vazifaga aylantirmoqda. Auditorlar nafaqat an'anaviy hujjatlarni tahlil qilish, balki raqamli muhitdagi dalillarni ham to'plash va baholash ko'nikmalariga ega bo'lishlari zarur.

O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi hamda "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunlari va Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan milliy auditorlik standartlari asosida tartibga solinadi. Biroq amaliyotda dalil olish jarayonida ko'plab muammolar mavjud bo'lib, ularni o'rganish va hal etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolaning maqsadi — audit jarayonida dalil olishning nazariy-uslubiy asoslarini o'rganish, amaliyotda uchraydigan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini taklif qilishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Xalqaro Auditorlik Standarti ISA 500 "Audit dalillari"ga ko'ra, audit dalillari — auditorning moliyaviy hisobotlarga nisbatan xulosalar chiqarishi uchun asos bo'lib xizmat qiladigan ma'lumotlardir. Bu ta'rif dalillarning ikki muhim jihatini — ma'lumot sifatidagi moddiy xususiyatini va xulosalar chiqarishga xizmat qiluvchi funksional rolini — ajratib ko'rsatadi.

Audit dalillari quyidagi asosiy xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

– **Yetarlilik (sufficiency)** — dalillarning miqdoriy ko'rsatkichi bo'lib, auditor qo'lida mavjud bo'lgan barcha materiallar asosli xulosa chiqarish uchun yetarli bo'lishi lozim. Yetarlilik auditorlik xatari bilan chambarchas bog'liq: xatar qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik ko'p dalil talab etiladi.

– **Moslik va ishonchlik (appropriateness)** — dalillarning sifatiy ko'rsatkichi bo'lib, ular tekshirilayotgan



masalaga mos kelishi va ishonchli manbalardan olinishi lozim. Uchinchi tomonlardan olingan tashqi dalillar odatda ichki dalillarga qaraganda ishonchliroq hisoblanadi.

– **Tegishlilik (relevance)** — dalillar audit maqsadiga bevosita aloqador bo'lishi kerak. Noto'g'ri yoki maqsadga mos bo'lmagan ma'lumotlar to'plash jarayonini murakkablashtiradi va resurslarning samarasiz sarflanishiga olib keladi.

Audit dalillarining manbalari ham xilma-xildir. Asosiy manbalar qatoriga quyidagilar kiradi: moliyaviy hisobot va buxgalteriya registrlari, birlamchi hujjatlar (shartnomalar, schyot-fakturalar, dalolatnomalar), boshqaruv xatlari va bayonnomalari, uchinchi tomonlardan (banklar, kontragentlar) olingan tasdiqlashlar, auditorning bevosita kuzatuv va fizik inventarizatsiya natijalari, mutaxassislar xulosalari, shuningdek ichki nazorat tizimiga doir materiallar.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Audit nazariyasida dalillar turli mezonlar bo'yicha tasniflanadi. Ushbu tasnif auditorlarga protseduralarni to'g'ri rejalashtirish va baholash imkonini beradi.

Manbasiga ko'ra dalillar quyidagilarga bo'linadi:

**Tashqi dalillar** — auditorning so'roviga javoban uchinchi shaxslar (banklar, kreditorlar, debitorlar, davlat organlari) tomonidan bevosita auditorga yuborilgan ma'lumotlar. Bu dalillar eng ishonchli hisoblanadi, chunki ular tekshirilayotgan tashkilot ta'siridan mustaqil ravishda olinadi.

**Ichki dalillar** — tashkilot ichida yaratilgan va saqlanadigan hujjatlar va ma'lumotlar. Ularning ishonchligi ichki nazorat tizimining sifatiga bog'liq. Ichki nazorat samarali bo'lgan taqdirda, ichki dalillar ham yuqori darajada ishonchli bo'lishi mumkin.

**Aralash dalillar** — avval tashkilot tomonidan uchinchi tomonga yuborilgan, so'ngra auditorga qaytarilgan hujjatlar. Bunday dalillarning ishonchligi o'rtacha darajada baholanadi.

Xarakteriga ko'ra dalillar:

Audit dalillari hujjatli, og'zaki va vizual (kuzatuv orqali olingan) turlarga bo'linadi. Hujjatli dalillar eng ko'p qo'llaniladigan va ishonchli dalil turi hisoblanib, ular qog'oz yoki elektron shaklda bo'lishi mumkin. Og'zaki dalillar — intervyu va so'rovlar orqali olingan ma'lumotlar bo'lib, ular odatda mustaqil tasdiqlashni talab qiladi. Vizual dalillar — auditorning bevosita kuzatuv natijasida olingan dalillar bo'lib, ular ayniqsa inventarizatsiya va moddiy aktivlarni tekshirishda muhim rol o'ynaydi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

ISA 500 standartiga muvofiq, auditor dalillarni to'plash uchun quyidagi asosiy protseduralardan foydalanadi:

**So'rov va intervyu (Inquiry)** — bu eng keng tarqalgan protsedura bo'lib, auditor tashkilot xodimlari, boshqaruv va ba'zi hollarda uchinchi shaxslardan og'zaki yoki yozma ravishda ma'lumot oladi. So'rov jarayonida ochiq savollar berish, xodimlarni erkin gapirishga undash va olingan ma'lumotlarni boshqa dalillar bilan taqqoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, so'rovlar orqali olingan dalillar o'z-o'zidan yetarli hisoblanmaydi va boshqa protseduralar bilan tasdiqlanishi zarur.

**Tasdiqlash (Confirmation)** — auditor banklar, debitorlar, kreditorlar kabi uchinchi tomonlardan bevosita tasdiqlash oladi. Bu protsedura ayniqsa debitorlik qarzlari va bank qoldiqlarini tekshirishda qo'llaniladi. Tashqi tasdiqlashlar audit dalillarining eng ishonchli shakllaridan biri hisoblanib, ISA 505 standarti tomonidan alohida tartibga solinadi.

**Qayta hisoblash (Recalculation)** — auditor hujjatlardagi matematik hisoblarning to'g'riligini tekshiradi. Bu protsedura amortizatsiya hisob-kitoblari, foiz to'lovlari, soliq bazasi va boshqa miqdoriy ko'rsatkichlarni tekshirishda qo'llaniladi.

**Qayta bajarish (Reperformance)** — auditor tashkilot tomonidan bajarilgan ma'lum bir protsedura yoki operatsiyani mustaqil ravishda qayta bajaradi. Masalan, bank hisob-kitobini mustaqil ravishda qayta tuzib chiqishi mumkin.

**Analitik protseduralar (Analytical procedures)** — moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqliklarni tahlil qilish. Bu protsedura ISA 520 standarti bilan tartibga solinadi va katta hajmdagi ma'lumotlarni tez tahlil qilish imkonini beradi.

**Kuzatuv (Observation)** — auditor ma'lum bir jarayonni yoki operatsiyani bevosita kuzatadi. Klassik misol — inventarizatsiya jarayonini kuzatish. Kuzatuvning kamchiligi shundaki, kuzatilayotgan shaxslar auditor mavjudligini bilganlarida odatdagi harakatlaridan farqli ravishda harakat qilishlari mumkin.

**Tekshirish (Inspection)** — hujjatlar, aktivlar va boshqa moddiy obyektlarni ko'zdan kechirish. Hujjatlarni tekshirishda imzolarning mavjudligi, sanalarning to'g'riligi, hujjatning to'liqligi va boshqa belgilarga e'tibor



qaratiladi.

Katta hajmdagi tranzaksiyalar yoki hujjatlar massivini to'liq tekshirish ko'p hollarda amaliy jihatdan imkonsiz bo'lgani uchun auditorlar odatda tanlash asosida ishlaydilar. Auditorlik tanlash — bu to'planning barcha elementlariga oid xulosalar chiqarish maqsadida tekshiruv uchun muayyan elementlarni ajratib olish jarayonidir.

ISA 530 "Auditorlik tanlash" standarti tanlashning ikki asosiy usulini ko'zda tutadi: statistik va statistik bo'lmagan (professional mulohazaga asoslangan) tanlash. Statistik tanlashda tasodifiy tanlov usullari qo'llaniladi va natijalar statistik usullar bilan baholanadi. Statistik bo'lmagan tanlashda esa auditorning professional mulohazasi va tajribasi asosiy rol o'ynaydi. Har ikkala usulning ham o'ziga xos afzallik va kamchiliklari mavjud bo'lib, ularning qo'llanilishi auditorlik vaziyatiga bog'liq.

Axborot asimmetriyasi va hujjatlarga kirish muammolari

Audit jarayonidagi eng katta muammolardan biri — axborot asimmetriyasidir. Tashkilot rahbariyati va xodimlari auditorga qaraganda ancha ko'p ma'lumotga ega bo'lib, ular ba'zi hollarda muhim ma'lumotlarni yashirishga yoki chalg'itishga urinishlari mumkin. Bu holat ayniqsa firibgarlik xatari yuqori bo'lgan vaziyatlarda kuchli namoyon bo'ladi.

Hujjatlarga kirish muammosi ham ko'p hollarda yuzaga keladi. Tashkilot ma'lum hujjatlarni "maxfiy" deb belgilab, auditorga berishni rad etishi yoki kechiktirishi mumkin. Ba'zan hujjatlar noto'g'ri tartibda saqlanishi, yo'qolishi yoki shikastlanishi ham kuzatiladi. Axborot texnologiyalarining keng qo'llanilishi esa elektron dalillarga ruxsatsiz kirish va ularni o'zgartirish xavfini yanada oshirmoqda.

Bundan tashqari, xodimlar bilan o'tkaziladigan intervyular ham muammoli bo'lishi mumkin: xodimlar ish joyini yo'qotishdan qo'rqib, noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan ma'lumot berishlari mumkin. Boshqaruv ta'siri ostidagi xodimlardan olingan dalillar alohida ehtiyotkorlik bilan baholanishi zarur.

Zamonaviy tashkilotlarda moliyaviy operatsiyalarning katta qismi elektron tizimlar orqali amalga oshiriladi. Bu holat audit jarayonida bir qator yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Elektron dalillar osongina o'zgartirilishi, o'chirilishi yoki soxtalashtirilishi mumkin. Shu sababli auditorlar elektron dalillarning yaxlitligi (integrity) va haqiqiyligini tasdiqlashi zarur.

Korporativ axborot tizimlari murakkab bo'lgani uchun audit jarayonida IT mutaxassislarining ishtiroki talab etiladi. ISA 315 standarti axborot texnologiyalari muhitini tushunish va baholashni auditorlik rejalashtirish jarayonining ajralmas qismi sifatida belgilaydi. Biroq amaliyotda ko'plab auditorlik firmalarida IT auditi bo'yicha yetarli malakali mutaxassislar mavjud emas.

Bulutli (cloud) texnologiyalar keng tarqalishi bilan birga, dalillarning qaysi serverda va qaysi mamlakatda saqlanishi masalasi ham murakkab huquqiy va amaliy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ba'zi hollarda bulutli xizmat ko'rsatuvchi provayderlar auditorlarga to'liq kirish imkonini bermasligi mumkin.

Auditorlik tanlash jarayonida ham bir qator muammolar mavjud. Tanlash hajmini noto'g'ri belgilash — juda kichik tanlash xato va firibgarliklarni aniqlamaslikka, juda katta tanlash esa resurslarning behuda sarflanishiga olib kelishi mumkin. Professional mulohazaga asoslangan tanlashda subyektivlik xavfi ham mavjud.

Analitik protseduralarni qo'llashda ham muammolar kuzatiladi. Taqqoslash uchun bazaviy ko'rsatkichlarning noto'g'ri tanlanishi yoki tahlil metodologiyasidagi xatolar noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, noodatiy ko'rsatkichlarni aniqlashda auditorning tajribasi va bilimi katta rol o'ynaydi, bu esa subyektivlik elementini kuchaytiradi.

Audit jarayonida huquqiy muammolar ham yuzaga keladi. Maxfiylik to'g'risidagi qonunlar ba'zi ma'lumotlarning oshkor etilishini cheklashi mumkin. Shu bilan birga, auditorning ma'lumotni oshkor etish majburiyati (masalan, firibgarlik shubhasida) va uni maxfiy saqlash majburiyati o'rtasidagi ziddiyat murakkab vaziyatlarni yuzaga keltiradi.

Auditor mustaqilligi muammosi ham dalillarni baholashda muhim rol o'ynaydi. Mijoz tashkilotga moliyaviy jihatdan bog'liq auditorlar ba'zan ijobiy xulosaga moyil bo'lishi mumkin. Bu holat ISA 200 standartida belgilangan professional skeptitsizm tamoyiliga zid keladi.

Audit dalillarini olishdagi muammolarni bartaraf etishda metodologik bazani mustahkamlash zarur. Xalqaro auditorlik standartlarini to'liq o'zlashtirish va ularni amaliyotda izchil qo'llash sifatli dalil olishning asosidir. Milliy auditorlik standartlarini ISA standartlari bilan yanada uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Risklarga asoslangan audit yondashuvini to'liq joriy etish ham muhimdir. Bu yondashuv auditorlarga yuqori riskli sohalariga ko'proq e'tibor qaratish imkonini beradi va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish audit sifatini sezilarli darajada oshiradi. Data analytics vositalari katta hajmdagi ma'lumotlarni to'liq tahlil qilish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt va mashinaviy o'qitish texnologiyalari firibgarlikni aniqlash va anomaliyalarni topishda keng qo'llanilmoqda. Blokcheyn texnologiyasi esa tranzaksiyalarning o'zgartirib bo'lmaydigan qaydini ta'minlab, dalillar yaxlitligini mustahkamlaydi.

Auditorlarning professional malakasini oshirish, ayniqsa IT auditi va ma'lumotlar tahlili sohalarida, dalillar



sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Professional skeptitsizmni rivojlantirish ham auditorlik sifatini oshiruvchi asosiy omillardan biridir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Audit dalillarini olish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u auditorlik xulosasining ishonchliligini belgilaydi. Axborot asimmetriyasi, raqamli muhitdagi xavflar, huquqiy va metodologik muammolar zamonaviy audit amaliyotining asosiy chaqiriqlari hisoblanadi.

Ushbu muammolarni hal etish uchun kompleks yondashuv talab etiladi: xalqaro standartlarni to'liq joriy etish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va auditorlar malakasini doimiy oshirib borish.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida" O'RB-677-son Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-5307886#-5311335>
2. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi Buxgalteriya hisobi to'g'risida" O'RB-404-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-2931253?ONDATE=14.04.2016%2000>
3. International Federation of Accountants (IFAC). (2009). *International Standard on Auditing (ISA) 500: Audit Evidence*.
4. International Federation of Accountants (IFAC). (2009). *International Standard on Auditing (ISA) 505: External Confirmations*.
5. International Federation of Accountants (IFAC). (2009). *International Standard on Auditing (ISA) 530: Audit Sampling*.
6. Arens, A. A., Elder, R. J., & Beasley, M. S. (2020). *Auditing and Assurance Services*. Pearson Education.
7. Hayes, R., Wallage, P., & Gortemaker, H. (2014). *Principles of Auditing: An Introduction to International Standards on Auditing*. Pearson Education.
8. Karimov, I. A. (1995). *O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida*. Toshkent: O'zbekiston.
9. Juraev, T. T., & Xoliqov, A. A. (2018). *Audit nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: TDIU.
10. Toshmatov, Sh. A. (2019). *Moliyaviy nazorat va audit*. Toshkent: Moliya.
11. Public Company Accounting Oversight Board (PCAOB). (2010). *Auditing Standard No. 15: Audit Evidence*. Washington, D.C.
12. Power, M. (1997). *The Audit Society: Rituals of Verification*. Oxford University Press.
13. American Institute of Certified Public Accountants (AICPA). (2015). *Audit Analytics and Continuous Audit: Looking Toward the Future*. New York.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)